

Nekronimlarda Indikatorlarning Qo‘llanish Xususiyatlari

*Kaxarov Shuxratbek Tursunovich*¹

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek tili nekronimlari tarkibida qo‘llangan toponimik indikatorlar tahlil etilgan va guruhlashtirilgan. Ularning aksariyati o‘z qatlam elementlari ekani ta’kidlangan. Indikatorlar birikib kelgan apellyativlar semantik jihatdan guruhlarga ajratilgan. Misollar tahlilida qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: nekronim, toponim, indikator, apellyativ, etimologiya, o‘zbek tili, turkiy tillar, qabriston.

KIRISH

Onomastik ko‘lamda nekronimlar boy material bera olishi jihati bilan katta guruhni tashkil etadi. Birgina Andijon viloyatining o‘zida sakkiz yuzdan ortiq qabriston, mozor, ziyoratgoh tipidagi nekronimik obyektlar qaydga olingan. Toponimlarning boshqa turlariga xos bo‘lgan barcha lingvistik belgi-xususiyatlar nekronimlarda ham kuzatiladi. Ularni ham toponimlarda bo‘lganidek grammatik jihatdan sodda va murakkab tipli birliklarga ajratib oldik². Sodda tip nekronimlarni o‘z navbatida diaxron aspektida bir asosga yoxud sinxron aspektida bo‘linmas bir asosga ega bo‘lgan, shuningdek, topoformantlarga ega nekronimlarga ajratish mumkin³. Sodda tip nekronimlarga qaraganda murakkab tipli nekronimlar miqdori ko‘p. Ularni o‘z navbatida qo‘shma so‘z shaklli va indikatorli nekronimlarga ajratdik. Quyida biz indikatorli nekronimlarni tahlil qilishni maqsad qildik.

ASOSIY QISM

Nekronimlar tarkibida ham boshqa toponimlarda bo‘lganidek maxsus kalit so‘zlar, ya’ni indikator so‘zlar faol qo‘llanadi. Toponimik indikatorlar toponimlar tarkibida kelib, mazkur toponimning qaysi tur toponimga mansubligini ko‘rsatib beradi⁴. Rasmiy nomenklatura bo‘yicha nekronimlarning indikator *qabriston* leksemasi sanaladi hamda u nekronimlar bilan birikma holida qo‘llanadi: *Mirpo‘stin ota qabristoni*, *Qo‘sh tepa qabristoni*, *Chilonmozor qabristoni* kabi. Biroq tadqiqotimiz asosi nekronimlarni lug‘aviy birlik sifatida tahlil qilish bo‘lgani uchun biz quyida nekronimlarning tarkibida yaxlit nom ostida qo‘llanuvchi indikatorlar masalasiga to‘xtalamiz.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, Andijon viloyati nekronimlari orasida hurmatli va e’tiborli bo‘lgan shaxsga ishora qiluvchi indikatorlar faol qo‘llangan. Ulardan eng ko‘p “ota” indikator qo‘llangani aniqlandi: *G‘affor ota*, *Qo‘ziboy ota*, *Xudoyqul ota*, *Ko‘kto‘nli ota*, *Norinboy ota*, *Qorabosh ota*, *Og‘acha ota*, *Islom ota*, *Hasan ota*, *Otchopar ota*, *Maxsim ota*, *Rustam ota*, *Gumbaz ota*, *Takavoy ota* kabilar. Boshqa tillarda bo‘lganidek, odatda, o‘zbek tilida ham antroponimlar bilan birga qarindoshlik darajasini ko‘rsatadigan (*tog‘a*, *amaki*, *xola*, *amma*, *aka*, *uka*, *opa*, *singil* kabilar) atamalar faol qo‘llanadi. Shuningdek, mazkur leksemalar bir qator uslubiy vazifalarni ham bajarib keladi. Masalan, garchi qarindoshlik aloqasi bo‘lmasa-da, o‘zga shaxslar uchun yo alohida, yoki ismlari bilan qo‘llanganda, hurmat qilish, e‘zozlash, o‘ziga yaqin olish kabi konnotatsiyani ifodalaydi. Nekronimlar tarkibida qo‘llanuvchi “ota” komponenti ham toponimik indikator sifatida ziyoratgoh, muqaddas qadamjo, mozor, qabriston obyektlarini ko‘rsatish funksiyasini bajaradi. Ota leksemasi umumturkiy bo‘lib, barcha turkiy tillarda bir xil ma’noda, biroq turli fonetik variantlarda (*ota*, *ata*, *atte*, *ati*, *ada*)

¹ Andijon davlat universiteti, O‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi

² Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области: Автореф. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1968. – С.9.

³ Kaxarov Sh.T. O‘zbek tili nekronimlarida topoformantlarning qo‘llanishi // Research Focus International Scientific Journal / Volume 4 / Issue 3 / 2025. – P. 155-160.

⁴ Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. 2-изд. – М.: Наука, 1988. – С. 125.



qo'llanadi. O'TILda ota so'zining keyingi ma'nolari sirasida "Yoshi katta kishilarga murojaat qilishda yoki ularni hurmat qilish uchun ishlatiladi"⁵ deyiladi. Bu esa o'zbek xalqiga xos bo'lgan yuksak qadriyatlardan biridir. Ma'lumki, qadriyatlar jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi va uning a'zolarida ijobiy holatlarni shakllantiradi⁶. Qadimdan xalqimiz olim va fozil kishilarni ulug'lab, e'zozlab kelgan. Ota komponentli nekronimlarning motivatsion asosini aksariyat ana shunday shaxslarning nomlari tashkil etadi: *Mirpo'stin ota, Xo'jarazzoq ota, Bahouddin ota, Xo'ja Bosmon ota, Xo'ja ota, Oqto'nli ota, Davkar ota, Imom ota, Boboxuroson ota, Mirishkor ota, Fozilmon ota* va boshqalar.

Bizningcha, bu kabi nekronimlar tarkibidagi ota leksemasi *ustoz, murshid* kabi ma'nolarni ifodalagan. Ko'hna Movarounnahr va Turkiston o'lkasida tarixda ilk shakllangan tasavvuf harakatlari va tariqat maktablari boshida Xoja Ahmad Yassaviy asos solgan yassaviylik turadi. Yassaviya tariqati ustozlari va mansublari asosan turkiy tilli aholi bo'lgan. Shuning uchun mazkur silsila murshidlari o'z muridlari uchun ma'nan ota maqomida, ya'ni tarbiyalovchi – kamolotiga mas'ul bo'lgani uchun ota deb yuritilgan (qiyos uchun: arabcha "shayx" va forscha "pir" ekvivalentlari *chol, qariya, mo'ysafid* ma'nolarini ifodalashini eslab o'tish o'rinli). Hakim ota, Zangi ota, Uzun Hasan ota, Sayid ota, Sadr ota, Badr ota, Xalil ota, Mansur ota kabi ko'plab yassaviylik shayxlari nomlari bunga misol bo'ladi.

Ota indikatorli xalq orasida hurmatli, e'tiborli bo'lgan shaxslar, shuningdek, qabristonga ilk qo'yilgan yoxud atrof mahalla, guzar, qishloq, qabristonlarni obod qilgan va odamlarga foydasi yetgan fidoyi insonlar ismi bilan ham keladi: *Mamorasul ota, Hurboy ota, Badal ota, Nizom ota, Abdumalik ota* kabi.

Ota indikatorli nekronimlar viloyatning Andijon, Paxtaobod, Buloqboshi, Marhamat tumanlari va Andijon shahri hududlarida ko'proq qo'llangani kuzatildi. Ota indikatorli odatda antroponimlar bilan kelsa-da, ayrim nekronimlarda bu holat kuzatilmadi: *Mirishkor ota, Davkar ota, Imom ota, Oqto'nli ota, Ko'kto'nli ota, Gumbaz ota, Mirpo'stin ota* kabi.

Nekronimlar tarkibida *bobo, buva* indikatorlari ham ota komponentli nekronimlarda bo'lgani kabi antroponimlar va shaxsni ko'rsatuvchi so'zlar bilan qo'llangan. *Mullasher buva, Shodmon buva, A'lam buva, Oxton buva, Akmalxon buva, Devona buva, Eshon buva, Chingich buva, Qulmon buva, Berdi buva* kabi. Biroq ota indikatoriga qaraganda bularning miqdori kam.

Etimologik lug'atlarda *bobo* so'zi umumturkiy ekani hamda *buva* so'zi *bobo* leksemasining fonetik o'zgarishga uchragan varianti ekani ta'kidlanadi⁷. Turkiy tillar leksikasiga bag'ishlangan ishlarda *bobo* leksemasi ayrim fonetik va semantik farqlar bilan barcha turkiy tillarda qo'llanishi ko'rsatiladi. Biroq *buva* varianti asosan o'zbek va uyg'ur tillarida (uyg'urchada *bo'va*) uchrashini kuzatdik⁸. Bobo va buva indikatorlarining qo'llanishi ota indikatorli qadar faol emas.

Bobo indikatorli nekronimlar Baliqchi tumanida faol qo'llangani kuzatildi: *Qirg'iz bobo, Oxun bobo, O'rol bobo, G'oyib bobo, Oxun bobo, Xo'ja bobo, Qilichburhon bobo* kabilar. Bundan tashqari Andijon shahri (*Bobo Sa'diddin, Bobo Tavakkul*), Shahrixon (*Temur bobo, So'fi bobo*) va Marhamat (*Eshon bobo, To'ra bobo*) tumanlarida ham mavjud. Buva indikatorli nekronimlar, asosan, Andijon shahri (*Buvasa'din, Buvatavakkal – mahalliy aholi nutqidagi variant*) hamda Andijon (*Mozorbuva, Mullasher buva, Buvasariq, Shodmon buva*), Shahrixon (*Devona buva, Eshon buva, Chingich buva, Tolmozor buva*), Marhamat (*Hakimxo'ja eshon buva, Qulmon buva, Berdi buva*) tumanlaridagi nekronimlarda uchraydi.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2007. – Б. 152.

⁶ Usmanov F.F. O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. avtoref. – Andijon, 2024. – B. 17.

⁷ Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Общeturкские и междутуркские основы на букву «Б». – М.: Наука, 1978. – С. 10. (350 с.); Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Туркий сўзлар. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 55. (600 б.)

⁸ Исмоилов И.А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 76. (152 б.)



Oz bo'lsa-da *eshon* indikatori ham qo'llangan. Masalan, Paxtaobod tumanida (*Mavlonjon eshon*, *Sirojiddin eshon*, *Saidomon eshon*), Shahrixon tumanida (*Mirzayoqubboy eshon*, *Bekbo'ta eshon*, *Devona eshon*).

Nekronimlar orasida ayol subyektlar nomiga qo'yilganlari ham mavjud bo'lib, ularda *ona*, *ena*, *momo*, *xonim*, *acha* indikatorlari qo'llangan. Masalan, *Og'acha ona*, *Devonaxon ona*, *Sulton ena*, *Tuzluqmomo*, *Oqtosh momo*, *Oyim acha* (*Oyimcha*), *Ayshaxonim* kabilar.

Ona so'zi turkiy tillarda qo'llanish chastotasi eng ko'p bo'lgan so'zlar sirasiga kiradi. Shuningdek, davr o'tishi bilan bu leksema ko'plab formal-fonetik va semantik o'zgarishlarga uchragan. Qadimgi turkiy manbalarda, jumladan, M.Koshg'ariy, Abu Hayyon, Jamoliddin Turkiy, "Attuhfa" lug'atlarida hamda aksar turkiy tillarda *ana* variantida uchraydi⁹. Til taraqqiyotining keyingi davrlarida *ona*, *ena* hamda *acha* variantlari shakllanishi jarayon etgan¹⁰. Shuningdek, *momo* leksemasi ham umumturkiy sanaladi. O'zbek tili maxsus lug'atlarida mazkur so'z etimologiyasiga munosabat bildirilmagan, biroq ESTYa lug'atida tarixiy, qiyosiy va chog'ishtirma jihatlardan fonetik hamda leksik-semantik qurilishi atroflicha tahlil qilingan¹¹.

Xalqimizda obyektlarni nomlash masalasida hududning relyef xususiyatlarini hisobga olish ham ko'p uchraydi. Andijon viloyatining markaziy va sharqiy hududlari tog'oldi mintaqasi bo'lgani uchun relyefi notekis sanaladi va bu holat nekronimlar semantik strukturasida yaqqol ko'rinib turadi. Ayniqsa, "tepa" komponentli nekronimlar ko'p uchraydi. Ularni ham shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Biri bevosita aholini dafn etish maskanlarining relyef xususiyatlarini ko'rsatgan nomlar. Bu nekronimlarni bevosita nomlangan obyektlar o'laroq qabul qilsak bo'ladi. Yana biri esa oykonimlarning transonimizatsiyasi natijasida yasalgan nekronimlardir. Albatta, keyingisida qishloq relyefi xususiyati ifodalangan bo'ladi.

O'razantepa, *Qo'shtepa*, *Cho'qqitepa*, *Shahidtepa*, *Uzunchoqtepa*, *Sarvontepa*, *Uchtepa*, *Yakkatepa*, *Jartepa*, *Kamoltepa*, *Oqtepa*, *Qumtepa*, *Kattatepa*, *Mingtepa* kabi nekronimlarda yetakchi komponent maqomida kelgan apellyativlar xil-xususiyat yoki ot bo'lsin, barchasi tepalikning belgisini ifodalab keladi yoxud miqdorni anglatgan turlari ham xuddi shunday xususiyatni ko'rsatadi. Yuqoridagi misollar orasida *O'razantepa* nekronimi (Andijon shahri) etimologiyasi biroz mavhum. Mazkur obyekt bevosita kuzatilganda, zarang daraxtlari bilan qoplangan kichik bir tepalik qismi borligi aniqlandi. Bizningcha, fonetik o'zgarishlar natijasida *zarang* → *razan(g)* (metateza), keyin esa *razan* → *o'razan* (proteza) tarzida so'zning tovush qurilishi o'zgarib borgan. Qabrisonlarning tepaliklarda joylashishiga sabablardan biri qabrlarni yer osti suvlaridan himoyalash bo'lgan.

Nekronimik indikatorlar orasida bevosita qabrisonlarga ishora qiluvchi eng mashhur indikator bu, albatta, *mozor* indikatori sanaladi. Mozor so'zi *mazor* shakli bilan arabcha bo'lib, "ziyosat qilinadigan joy", "qabr" ma'nolarini ifodalaydi, ko'plik formasi *mazorot* bo'ladi¹². Bu so'z arab, fors, turk tillarida qabr ma'nosini anglatga, o'zbek tilidagi birinchi ma'nosi qabrison, keyingisi qabr sanaladi¹³. Demak, mozor leksemasi o'zining qabrison semasi bilan nekronimik indikator vazifasini bajaradi. Ushbu indikator turli semantik strukturaga ega apellyativlar bilan bog'lanib kelib nekronim yasalishida ishtirok etgan. Bu o'rinda xalqimizning toponimik tafakkuri va nominatorlik xususiyatlari o'z ifodasini topadi.

⁹ Кошғарий М. Девону луғотит турк. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 119. (500 б.); Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 11. (280 б.); Фозилов Э. Шаркнинг машхур филологлари. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 27. (80 б.)

¹⁰ Бу ҳақида қаранг: Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Пратюркский язык-основа. Картина мира пратюркского этноса по данным языка / отв. ред. Э.Р.Тенишев, А.В.Дыбо. – М.: Наука, 2006. – С. 541-542. (908 с.)

¹¹ Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на буквы «Л», «М», «Н», «П», «С». /Авт. сл. статей: Л.С. Левитская, Г.Ф. Благова, А.В. Дыбо, Д.М. Насилов, Е.А.Поцелуевский. – М.: Восточная литература РАН, 2013. – С. 27-30. (476 с.)

¹² Баранов Х.К. Большой арабско-русский словарь. Том 1. – М.: Живой язык, 2006. – С. 338.

¹³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2006. – Б. 607.



1) *Chilonmozor, Tolmozor, Pistamozor, Jiydamozor, Terakli mozor* kabi nekronimlar misolida mazkur komponentning o'simlik nomlari bilan faol bog'langani kuzatildi. 2) *Tepamozor, Chuqurmozor* kabi nekronimlarda hududning relyef xususiyatini ifodalagan apellyativlar bilan kelgan. *Changalmozor* nekronimini ham shu guruhga kiritish mumkin chunki changal so'zi to'qay, butazor kabi ma'nolarni ifodalaydi va bu o'rinda hudud xususiyati aks etgan bo'lmoqda. 3) *Hindimozor, Arabmozor, Rusmozor* kabi nomlarda etnonimlar bilan birikib kelgan. *Quramamozor* nekronimini shu guruhga kiritish mumkin, chunki qurama so'zi etnonim ekani ma'lum. 4) *Xo'jaota mozori, Mathoshim mozori, Iskandarmozor, Alimozor, Bandimozor* (Bandi ota mozori) kabi nomlarda antroponimlar bilan birikib kelgan. 5) *Tuyamozor, Tulkimozor* nomlarida esa hayvon nomlari bilan birikmoqda. 6) *Go'dakmozor, Shahidmozor, To'ramozor, Qorovulmozor, Kelinchakmozor, Bolamozor* nekronimlarida apellyativ leksika shaxs otlari bo'lmoqda. 7) *Tuzliqmozor, Oqmozor, Yuvoshmozor, Ulug'mozor, O'rtamozor, Mushkulmozor* nekronimlarida apellyativ leksika sifatlar bo'lmoqda. 8) *Toshmozor, Tuproqmozor, G'ishtmozor* nekronimlarida esa qabriston hududi yoxud qabrlar (yoki biror qabr) asosini tashkil etgan yetakchi komponentlar nomi apellyativ asos bo'lmoqda. 9) *Qoziqo'rg'on mozori, Hamzaobod mozori* nekronimlarida mahalla, qishloq nomi bilan bog'lanib kelgan. 10) *Qilichmozor* nekronimida indikator bilan kelgan apellyativ xususida bir qarashda muammo yo'qdek, lekin mahalliy xalq orasida *Guruchmozor* variantining borligi qiziq holat. Mazkur holat bo'yicha Andijon shahrida joylashgan *Pistabozor* nomining *Pistamozorga* o'tishi, shuningdek, aksincha, *Maydonmozor* nomining *Maydonbozor* nomiga o'tishi mutaxassislarni *Guruchmozor* variantiga asos bo'lgan balki *Guruchbozor* nomi haqida o'ylashga undasa ajabmas.

XULOSA

Andijon viloyati misolida olingan nekronimlarda lingvostatistika bo'yicha eng faol qo'llanuvchi indikator – bu ota indikator sanaladi. Hamda u asosan antroponimlar tarkibida qo'llanadi yoki shaxsga ishora qiluvchi apellyativlar bilan qo'llanadi. Bobo va buva indikatorlari otaga nisbatan kamfaol hisoblanadi. Oz bo'lsa-da, ayollar shaxsini ko'rsatuvchi ona, ena, momo kabi indikatorli nekronimlar ham uchraydi. Tepa indikator boshqa tip toponimlarda bo'lgani kabi nekronimlar tarkibida ham faol qo'llangan. Ularning bir qismi tayyor holatda oykonimlar tarkibida nekronimlarga o'tgan bo'lsa, bir qismi bevosita nekronimlar uchun qo'llangan. Semantikasi bevosita qabristonga ishora qiluvchi mozor indikator ham hudud nekronimlari tarkibida faol qo'llangan. Hamda u birikib kelgan apellyativlar semantikasi xilma-xil sanaladi. Mozor indikator kelib chiqishi arab tili qatlamiga oid bo'lsa, undan tashqari yuqoridagi barcha indikatorlar o'z qatlam birliklari sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaxarov, Sh.T. (2025). O'zbek tili nekronimlarida topoformantlarning qo'llanishi // Research Focus International Scientific Journal / Volume 4 / Issue 3 / P. 155-160.
2. Usmanov, F.F. (2024). O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti: Filol. fan. d-ri (DSc) ... diss. avtoref. – Andijon, 2024.
3. Аттухфатуз закияту филлуғатит туркия / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. – Тошкент: Фан, 1968. – 280 б.
4. Баранов, Х.К. (2006). Большой арабско-русский словарь. Том 1. – М.: Живой язык, 2006. – 456 с.
5. Исмоилов, И.А. (1966). Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. – Тошкент: Фан. – 152 б.
6. Кошғарий, М. (1960). Девону луғотит турк. – Тошкент: Фан, 1960. – 500 б.
7. Нафасов, Т. (1968). Топонимы Кашкадарьинской области: Автореф. ... канд.филол.наук. – Тошкент, 1968. – 24 с.
8. Подольская, Н.В. (1988). Словарь русской ономастической терминологии. 2-изд. – М.: Наука, 1988. – 192 с.



9. Раҳматуллаев, Ш. (2000). Ўзбек тилининг этимологик луғати. Туркий сўзлар. – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
10. Севортян, Э.В. (1978). Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву «Б». – М.: Наука, 1978. – 350 с.
11. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Пратюркский язык-основа. Картина мира пратюркского этноса по данным языка / отв.ред. Э.Р.Тенишев, А.В.Дыбо. – М.: Наука, 2006. – 908 с.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2006. – 672 б.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: ЎМЭ, 2007. – 688 б.
14. Фозилов, Э. (1971). Шаркнинг машҳур филологлари. – Тошкент: Фан, 1971. – 80 б.
15. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на буквы «Л», «М», «Н», «П», «С». /Авт. сл. статей: Л.С. Левитская, Г.Ф. Благова, А.В. Дыбо, Д.М. Насилов, Е.А.Поцелуевский. – М.: Восточная литература РАН, 2013. – 476 с.

